



janubiy hududlarida, g’arbdan Mavritaniya va Senegaldan boshlab, sharkda Chad va Sudan chegarasigacha bo’lgan juda katta maydonda ro’y bergan va bu qurg’oqchilik “Saxel fojeasi” nomi bilan mashhur bo’ldi[4]. Cho’llanishni o’rganish, oldini olish va unga qarshi kurashish chora tadbirlari bo’yicha jahon miqyosida ishlar olib boriladi. Bu mavzudagi 1 ta ilmiy anjuman 1977-yilda Keniyaning Nayrobi shahrida o’tkazilgan va unda Cho’llanishga qarshi kurash rejasi ishlab chiqilgan. Bunday ilmiy anjumanlar O’zbekistonda 1981-yilda Toshkentda, 2000-yilda Samarqandda o’tkazilgan. O’zbekiston Respublikasi 1995-yil 31 oktabrda qurg’oqchilik va “Cho’llanishga qarshi kurash Xalqaro konvensiya”siga qo’shilgan.

Arid cho’l va chala cho’llarda tuproq va qumlarning deflyatsiyasi kamroq faol. Insonning atrof muhitga ta’siridan tashqarida eol jarayonlariga nisbatan qalinroq o’simlik qoplami to’sqinlik qiladi. Shu sababli relyefning o’simlik bilan mahkamlangan o’ziga xos eol (tepachalar, serg’ovvak qumlar va b.) shakllarni hosil bo’ladi. Bunday holda deflyatsiya o’simlik rivojlanishi jarayonlari bilan birgalikda kechadi va ular orasida dinamik muvozanatni vujudga keltiradi[7].

Sug’orma dehqonchilik qilinadigan hududlarda tabiatdan va uning ayrim resurslaridan, shu jumladan yer va suv resurslaridan ham, foydalanish, yuqorida ta’kidlanganidek, sug’oriladigan hudud tabiiy muhitda dinamik muvozanatni buzilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish uchun nomaqbul bo’lgan tabiiy-antropogen jarayonlarning kuchayishi natijasida sug’oriladigan yerlarning mahsuldorligining pasayishiga, degradatsiyasiga va pirovardida yerlarning qishloq xo’jaligida foydalanish (oborot)dan chiqib qolishiga olib keladi, bosqacharoq qilib aytganda, irrigatsion cho’llashuvga olib keladi[6].

Irrigatsion cho’llashuv jarayonlari bilan bog’liq bo’lgan geoeologik muammolar yechimida sug’oriladigan yerlarda tabiatdan foydalanishni optimallashtirishda va qayta cho’llashayotgan landshaftlarni tiklash uchun tabiatni muhofazalovchi va agromeliyativ tadbirlarni o’tkazish taqoza etiladi. Shu sababli dehqonchilikni intensivlashtirish jarayoniga tabiiy muhitga antropogen yukni ortishini e’tiborga oladigan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Cho’llarda sug’oriladigan yerlarning mahsuldorligini oshirish, kechayotgan va vujudga kelishi mumkin bo’lgan salbiy holdagi tabiiy-antropogen jarayonlarni bartaraf qilish uchun kompleks tadqiqotlar, ya’ni agroirrigatsion landshaftlarning barcha xususiyatlarini o’rganish imkonini beradigan geografik tadqiqotlar o’tkazilishi zarur. Faqat kompleks tadqiqotlar antropogen landshaftlarning salohiyatidan samarali foydalanish uchun asoslangan amaliy tavsiyalar bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “GISS Surface Temperature Analysis (v4)”. NASA. 2024-yil 12-yanvar. IPCC AR6 WG1 Summary for Policymakers 2021, SPM-7, Forster et al. 2024, s. 2626.
2. Lynas, Mark; Houlton, Benjamin Z.; Perry, Simon (19 October 2021). “Greater than 99% consensus on human caused climate change in the peer-reviewed scientific literature”. *Environmental Research Letters* 16 (11): 114005. doi:10.1088/1748-9326/ac2966. ISSN 1748-9326.
3. “Global isish nima?”. <https://www.ekoloji.com>. ekoloji.com. 2024-yil 15-dekabr.
4. Abbosov S.B. Qizilqumda cho’llanishning antropogen omillari va uning oqibatlari. Tabiiy geografiyaning regional muammolari. Samarqand, 2002.
5. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). MAKTABGACHA TA’LIM YOSHIDAGI IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR UCHUN INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQIY TA’LIMNI TASHKIL ETISH METODIKASI. Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(1), 470-475.
6. Ramziddin Tursunov. (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori, 1(2), 36-40.
7. Алибеков Л.А. Щедрост пустыни. М., 1988.
8. Лобова Е.В., Хабаров А.В. Почвы. Природа мира. М., 1983.
9. Петров М.П. Пустыни мира. Л., 1974.

XALQARO BIZNES ALOQALARIDA MADANIYATLARARO XULQ-ATVOR

Xo’jaxonova Farida Abduqodir qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 2- bosqich talabasi
Xakimova Ro’zaxon Shokirjon qizi
Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi 2- bosqich talabasi



Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro biznes aloqalarida madaniyatlararo xulq-atvorning mohiyati, asosiy tamoyillari hamda biznes muvaffaqiyatiga ta’siri yoritilgan. Turli madaniyat vakillari o’rtasidagi muloqot jarayonida yuzaga keladigan farqlar, ularni boshqarish strategiyalari va madaniyatlararo kompetensiyaning o’rni tahlil qilingan. Maqolada amaliy misollar asosida global biznesda madaniyatlararo sezgirlikning ahamiyati ko’rsatib berilgan.

Kalit so’zlar: xalqaro biznes, madaniyatlararo muloqot, xulq-atvor, etiket, kompetensiya, global hamkorlik.

МЕЖКУЛЬТУРНОЕ ПОВЕДЕНИЕ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕЛОВЫХ ОТНОШЕНИЯХ

Ходжахонова Фарида Абдукодировна

Студентка 2-го курса направления

«Иностранный язык и литература»

Чирчикского государственного педагогического университета

Хакимова Рузахон Шакиржоновна

Студентка 2-го курса направления

«Иностранный язык и литература»

Чирчикского государственного педагогического университета

Аннотация. В статье раскрывается сущность и значение межкультурного поведения в международных бизнес-отношениях. Рассматриваются основные принципы, культурные различия и их влияние на результаты деловых переговоров. Особое внимание уделено формированию межкультурной компетенции и стратегиям эффективного взаимодействия с представителями разных культур.

Ключевые слова: международный бизнес, межкультурная коммуникация, поведение, этикет, компетенция, сотрудничество.

INTERCULTURAL BEHAVIOR IN INTERNATIONAL BUSINESS RELATIONS

Khojakhonova Farida Abduqodir qizi

2nd-year student of the Department of Foreign Language and Literature

Chirchik State Pedagogical University

Khokimova Ruzakhon Shokirjon qizi

2nd-year student of the Department of Foreign Language and Literature

Chirchik State Pedagogical University

Annotation. This paper explores the concept and importance of intercultural behavior in international business relations. It analyzes key cultural differences, their impact on negotiations, and the role of intercultural competence in ensuring successful cooperation. Practical examples demonstrate the importance of cultural sensitivity and effective communication in global business.

Keywords: international business, intercultural communication, behavior, etiquette, competence, cooperation.

Kirish

Globalizatsiya jarayonlari tufayli xalqaro biznes aloqalari kengayib bormoqda. Bugungi kunda turli millat, din, til va qadriyatlarga ega insonlar birgalikda ishlamoqda. Shu sababli, xalqaro biznesda madaniyatlararo xulq-atvor — hamkorlikning ajralmas qismiga aylandi. Madaniyatlararo xulq-atvor tushunchasi — bu turli madaniyat vakillarining ish jarayonida o’zaro muloqot qilish, muomala yuritish, qaror qabul qilish va xatti-harakatdagi farqlari majmuidir. Bu tushuncha quyidagi sohalarda namoyon bo’ladi:

1. Muloqot uslubi (to’g’ridan-to’g’ri yoki bilvosita)
2. Qaror qabul qilish jarayoni
3. Rahbar va xodim o’rtasidagi masofa
4. Sovg’a berish va tashrif madaniyati
5. Vaqtga munosabat va tashkilotchilik



Bundan tashqari, madaniy farqlarni tushunmaslik ko‘p hollarda noto‘g‘ri muloqot, ishonchsizlik va muvaffaqiyatsizliklarga olib keladi. Shu bois, zamonaviy menejer va tadbirkorlar uchun madaniyatlararo sezgirlik — eng muhim kasbiy kompetensiyalardan biridir.

Madaniyatlararo sezgirlik — bu boshqa xalqlarning qadriyatlari, urf-odatları, dunyoqarashi va hayot tarzini hurmat qilish, ularni

tushunishga harakat qilish demakdir.

Madaniyatlararo sezgirlik — bu insonning:

1. Madaniy farqlarni anglay olishi,
2. Boshqa madaniyatga nisbatan ochiq fikrli bo‘lishi,
3. Stereotiplardan xoli muloqot qila olishi,

G. Hofstede, E. Hall, F. Trompenaars kabi olimlar madaniyat farqlarini ilmiy tahlil qilib, xalqaro biznesda ularning ta’sirini chuqur o‘rganganlar. Ularning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, har bir mamlakat o‘ziga xos qadriyatlar, muloqot uslubi, rahbarlik modeli va qaror qabul qilish jarayoniga ega. Bu farqlar xalqaro kompaniyalar o‘rtasidagi hamkorlikda, muzokaralarda va menejmentda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, Hofstede madaniyatning o‘lchovlari orqali hokimiyat masofasi, individualizm, noaniqlikdan qochish va vaqtga munosabat kabi omillar biznes muhitga qanday ta’sir ko‘rsatishini tahlil qilgan. E. Hall esa muloqotning yuqori va past kontekstli turlarini ajratib, madaniyatlararo aloqa samaradorligini tushuntirgan. F. Trompenaars esa tashkilot madaniyatini yetti o‘lchov orqali baholab, ish uslubi, rahbarlik va jamoaviy qadriyatlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatib bergan. Ushbu olimlarning nazariyalari bugungi global iqtisodiyotda biznes yurituvchi shaxslar va tashkilotlar uchun muhim qo‘llanma vazifasini bajaradi. Chunki madaniyatlararo farqlarni anglash — xalqaro muloqotda xatolarga yo‘l qo‘ymaslik, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va muvaffaqiyatli hamkorlikni ta’minlashning asosiy omilidir.

Asosiy qism

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimdek, xalqaro biznes aloqalari shiddat bilan rivojlanayotganligi bois har bir inson yoki tashkilot boshqa xalqlarning madaniyatini, qadriyatlarini va muloqot uslubini to‘g‘ri tushunishi juda muhimdir. Chunki madaniyatlararo farqlarni e’tiborga olmaslik noto‘g‘ri tushunishlar, mojarolar va hatto biznesdagi muvaffaqiyatsizliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar bir nechta asosiy omillar orqali namoyon bo‘ladi. Masalan, til va muloqot uslubida G‘arb mamlakatlarida odamlar o‘z fikrini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytishni afzal bilishadi, Sharq mamlakatlarida esa bilvosita, yumshoq tarzda ifodalash odat tusiga kirgan. Vaqtga munosabat ham turlicha: Germaniya yoki AQShda vaqt juda muhim, kechikish odobsizlik deb qaraladi, ammo Lotin Amerikasi yoki Arab mamlakatlarida vaqtga nisbatan moslashuvchanlik mavjud. Shuningdek, G‘arbda shaxsiy yutuqlar va mustaqil fikr qadrlansa, Osiyo mamlakatlarida jamoaning birligi va umumiy manfaatlar ustun turadi. Ayrim davlatlarda rahbar bilan oddiy xodim o‘rtasidagi masofa kichik bo‘lsa, boshqalarida rahbarlik mavqei yuqori hurmat bilan saqlanadi. Ba’zi xalqlar yangi g‘oya va o‘zgarishlarni quvonch bilan qabul qiladi, boshqalar esa bunga ehtiyotkorlik bilan yondashadi. Madaniyatlararo farqlarni to‘g‘ri tushungan tashkilot xalqaro maydonda muvaffaqiyatga erishadi. Bunday yondashuv o‘zaro ishonchni kuchaytiradi, muzokaralarni samarali qiladi va tushunmovchiliklarning oldini oladi. Bundan tashqari, madaniy sezgirlikka ega bo‘lgan kompaniyalar xalqaro miqyosda ijobiy obro‘ qozonadi. Shu sababli har bir rahbar va xodim madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishi lozim. Bu — boshqa xalqlarning qadriyatlarini hurmat qilish, faol tinglash, empatiya ko‘rsatish, yangi muhitga tez moslasha olish, etiket va protokol qoidalarini bilish hamda stereotiplardan xoli bo‘lishni anglatadi. Hayotda bunga ko‘plab misollarni keltirish mumkin.

Masalan, Yaponiyada vizitkani ikki qo‘l bilan berish hurmat belgisi hisoblanadi. Arab mamlakatlarida ish uchrashuvlari odatda samimiy suhbat bilan boshlanadi. AQSh va Germaniyada vaqtning aniq rejalashtirish juda muhim bo‘lsa, Xitoyda to‘g‘ridan-to‘g‘ri tanqid qilish “yuzni saqlash” tamoyiliga zid deb qaraladi. Hindistonda esa qaror qabul qilishda yoshi katta insonlarning fikriga alohida e’tibor beriladi. Shu bilan birga, madaniyatlararo muloqotda muammolar ham uchrab turadi. Eng ko‘p uchraydiganlari — til to‘siqlari, madaniy stereotiplar, qaror qabul qilishdagi farqlar va ishbilarmonlik etiketi haqidagi yetarli bilimning yo‘qligidir. Bunday holatlarni bartaraf etish uchun madaniyatlararo treninglar tashkil etish, hamkor davlat madaniyatini oldindan o‘rganish, tashkilot ichida “madaniy elchi”lar tizimini joriy etish va rahbarlarda madaniyatlararo fikrlashni rivojlantirish zarur.

Yakuniy qism

Xulosa qilib aytganda, madaniyatlararo xulq-atvor xalqaro biznes va hamkorlikda muvaffaqiyatga erishishning eng muhim omillaridan biridir. Turli madaniyat vakillarining qadriyatlarini, muloqot



uslublarini va urf-odatlarini hurmat qilgan tashkilotlar global bozor sharoitida barqaror rivojlanadi. Madaniyatlararo sezgirlik nafaqat muloqotni yaxshilaydi, balki ishonchni mustahkamlaydi va kompaniya obro’sini oshiradi. Shu sababli, har bir inson, ayniqsa rahbarlar va tadbirkorlar, madaniyatlararo bilim va sezgirlikni o’z faoliyatining ajralmas qismi sifatida rivojlantirishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hofstede, G. (2010). *Cultures and Organizations: Software of the Mind*. New York: McGraw-Hill.
2. Hall, E. T. (1976). *Beyond Culture*. New York: Anchor Books.
3. Trompenaars, F., & Hampden-Turner, C. (1997). *Riding the Waves of Culture: Understanding Cultural Diversity in Business*. London: Nicholas Brealey Publishing.
4. Samovar, L. A., Porter, R. E., & McDaniel, E. R. (2014). *Communication Between Cultures*. Boston: Cengage Learning.
5. Ting-Toomey, S. (1999). *Communicating Across Cultures*. New York: The Guilford Press.
6. G’afurov, A., & Abdurahmonova, D. (2020). *Xalqaro biznes madaniyati*. Toshkent: TDIU nashriyoti.
7. Karimova, Z. (2021). *Madaniyatlararo muloqot va kommunikatsiya asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
8. Интернет манба: <https://www.businessculture.org> – International Business Culture Guide (kirish sanasi: 01.11.2025).

GLOBALLASHUV DAVRIDA INGLIZ TILINING VARVARIZATSIYASI

Burxonov Mehruz Saloxiddin o’g’li

Samarqand davlat universiteti Urgut filiali stajyor – o’qituvchisi, O’zbekiston

Email: burxonovmehruz819@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilining barbarizatsiya hodisasi zamonaviy globalizatsiya kontekstida tahlil qilinadi. Xalqaro – madaniyatlararo o’zaro ta’sir, raqamli kommunikatsiya va ingliz tilining global lingva franka sifatida kengayishi qanday qilib yangi lingvistik shakllarning paydo bo’lishiga va an’anaviy normativlarning zaiflashishiga olib kelganligi o’rganiladi. Tadqiqot bu jarayonning lingvistik, ijtimoiy-madaniy va pedagogik jihatlarini tahlil qiladi, innovatsiyalar va tilning barqarorligi o’rtasidagi muvozanatni o’rganadi. Ijtimoiy tarmoqlar, ta’lim va global kommunikatsiyadan olingan misollar asosida maqola barbarizatsiyani tilning pasayishi sifatida emas, balki globalizatsiya davrida tilning dinamik ravishda rivojlanishining ko’rsatkichi sifatida namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. Tadqiqot natijalari, tilda aniq tushunishni saqlagan holda, global ingliz tilida xilma-xillikni qabul qilishni ta’minlovchi ongli yondashuvni o’qitish va siyosatni shakllantirish zarurligini ko’rsatadi.

Kalit so’zlar: barbarizatsiya, globalizatsiya, ingliz tili, gibridlashuv, lingvistik evolyutsiya, sotsiolingvistika

BARBARIZATION OF THE ENGLISH LANGUAGE IN THE ERA OF GLOBALIZATION

Burkhonov Mekhriz Salokhiddin Ugli

Intern – teacher at the Urgut Branch of Samarkand State University, Uzbekistan

Email: burxonovmehruz819@gmail.com

Abstract: This article examines the phenomenon of the *barbarization* of the English language in the context of modern globalization. It explores how cross-cultural interaction, digital communication, and the expansion of English as a global lingua franca have led to the emergence of hybrid linguistic forms and the erosion of traditional norms. The study analyses linguistic, sociocultural, and pedagogical dimensions of this process, focusing on the balance between innovation and linguistic stability. Drawing on examples from social media, education, and global communication, the paper demonstrates that barbarization is not merely a sign of linguistic degradation but an indicator of dynamic language evolution in the globalized era. The findings highlight the need for a conscious approach to language teaching and policy that preserves clarity while embracing diversity in global English usage.

Keywords: barbarization, globalization, English language, hybridization, linguistic evolution, sociolinguistics

ВАРБАРИЗАЦИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ЭПОХУ ГЛОБАЛИЗАЦИИ